

Ko'k archa (Moviy archa) (Picea pungens) morfobiologiyasi va uy sharoitida ko'paytirish istiqbollari

L.U.Norqulova¹

F.I.Subxonberdi
yev²

O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika
instituti
o'qituvchi
norqulovalobar
8@gmail.com

F.I.Subxonberdi
yev. O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika
instituti talabasi
[msubxonberdiyev
a@gmail.com](mailto:msubxonberdiyev
a@gmail.com)

1.2. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'k archa (Picea pungens)ni uy sharoitida urug'idan unib chiqish jarayoni tasvirlangan. Bunda o'simlik uchun tuproq unumдорлиgi, harorat, namlik va yorug'lik ta'sirlari ham yoritilgan. O'stirish jarayonlaridan fotolavhalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar. *Picea pungens, qarag'aytoifa, ninabargli, urug', mineral moddalar, "Argentea", "Pendula", "Koster", "Aurea" navlari, dekorativ.*

Аннотация. В статье описан процесс проращивания ели голубой (Picea pungens) из семян в домашних условиях, а также объяснено влияние плодородия почвы, температуры, влажности и освещенности на растение. Также представлены фотографии процесса выращивания.

Ключевые слова. *Picea pungens, сосна, лиственная, семена, минеральные вещества, сорта «Аргентеа», «Пендула», «Костер», «Ауреа», декоративные.*

Abstract. This article describes the process of germinating blue spruce (Picea pungens) from its seeds at home. The effect of soil fertility, temperature, humidity and light on the plant is also explained. Photographs of the growing process are also provided. Key words. *Picea pungens, pine, deciduous, seeds, mineral substances, varieties "Argentea", "Pendula", "Koster", "Aurea", decorative.*

Kirish

Ko'k archa (Moviy archa) (Picea pungens) o'simligi tabiatga kislorod ajratishi bilan chegaralanib qolmay, butun insoniyatni o`ziga chiroyi bilan ham jalg etmoqda. Shu bilan bir qatorda bir qancha davlatlarda o'stirilib, ekilmoqda. Ayni paytda esa o'zimizning yurtimizda ham bir qancha joylarida yaxshi o'stirilmoqda.

Ko'k archa Amerika Qo'shma Shtatlarida, xususan, tog'larda o'sadigan doimiy yashil daraxtdir. **Yillar davomida uning balandligi 35 metrga yetishi mumkin.** U uzunligi taxminan 30 millimetrr bo'lgan o'tkir ignalar shaklidagi barglardan tashkil topgan. Ko'k archa o'simlik dunyosining qarag'aytoifa bo'limiga mansub ninabargli ko'p yillik daraxtdir.[1] Uning **barglari ko'k rangga ega.** Bundan tashqari, siz ularni ishqalaganingizda aromatik ekanligini bilishingiz kerak va qubbasining shakli cho'zinchoq silindrishimon, dastlab yashil rangga ega, ammo pishib bo'lgandan keyin jigarrang bo'ladi. **"Argentea", "Pendula", "Koster" yoki "Aurea"** kabi bir nechta navlar mayjud.[2] Bu iqlimi mo'tadil bo'lgan har qanday bog'da ajoyib ko'rindigan ajoyib bezak qiymatiga ega ignabarglidir. Moviy archa doimiy ko'k, sekin o'sadigan ignabargli o'simlik, vatani Shimoliy Amerika. Kulrang tanali daraxt, har xil o'lchamlarga ega. Su'niy ravishda o'stirilgan kichik o'lchamdagisi navlar - 1-1,2 m bo'ladi. Baland bo'yilari esa balandligi 15 metrga yetadi. Noyob turlari balandligi esa 30 m yetadi. Moviy archa shahar sharoitida yaxshi o'sadi. Chunki unga chang va chiqindi gazlar ta'sir qilmaydi va u havoni tozalash ta'siriga ega. Shuning uchun, ko'k archa ko'pincha

shahar bog'lari va magistral yo'llarni obodonlashtirish uchun yo'l bo'ylab ekilgan [7].

Aholi va bog'bonlar noyob o'simliklar bilan hududni yaratish qanchalik qiyin ekanligini bilishadi. Bundan tashqari, har kim ham noyob yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simliklarning ko'chatlarini sotib olishga qodir emas. Shunday ekan pulni tejashning yagona yo'li bor, ya'ni urug'lardan yoki etishtirishning ko'proq mehnat talab qiladigan usullariga murojaat qilish, ko'rsatkichlarga e'tibor berib, ko'chatchilik xo'jaliklarida yuqori sifatli urug'larni sotib olish yaxshiroqdir. Buning uchun quydagilarga e'tibor berish kerak: 1.Urug'lar joriy mavsumda tayyorlash kerak. 2.Yuqori unib chiqishi, urug'larning hayotiyligini saqlab turishi uchun sinovdan o'tkazilishi va optimal iqlim sharoitida saqlanishi kerak [10].



Hammamizga ma'lumki, ignabargli daraxtlar gullamaydi, balki, qubbalar hosil qiladi. Shunday ekan, ko'k archani ham konus shaklidagi qubba urug'idan ko'paytirish uchun ma'lum mavsumda terib olish zarur. Masalan, noyabr oyida sovuq kunlar boshlanganidan keyin urug'ini olish kerak. Olingan urug'lar uchun maksimal issiq joy tanlanadi. Chunki ular issiq haroratda qubbasidan yorilishi kerak. Ochiq qubbadan urug'larni silkitib yengil urish kerak. Ko'k archa o'stirish bo'yicha tajriba uchun 100 gramm urug'dan foydalanish lozim. Bu taxminan 18 000 dona urug'ni ekish oldidan ularni kaliy permanganatning 1% eritmasida 2 soat davomida namlantirish lozim. Archa urug'ini ekish uchun o'sish stimulyatorlaridan foydalanilmaydi. Aksincha, substratga maxsus o'g'itlar beriladi. Ko'k archa urug'larini kaliy permanganat bilan ishlov bergandan so'ng, ular doka bilan yopiladi va quyoshda quritiladi. Doka urug'larni qushlarning ko'zidan himoya qilish imkonini beradi.[6]



Ko‘k archa o‘sishi uchun substrat tayyorlash

Urug‘lardan ko‘k archa yetishtirish uchun substrat oldindan tayyorlangan bo‘lishi kerak. Uning torf, dag‘al daryo qumi, o‘g‘itlarga boy tuproqda o‘sish chuqurligi 25 sm bo‘lish kerak. Ko‘k archa urug‘ini ekish nam tuproqda amalga oshiriladi. Issiqxonada tuproq yuzasi ehtiyyotkorlik bilan tekislanib, qatorlar va qator oraliqlarini shunday belgilab qo‘yish kerakki, unda inson erkin yurish, ishslash va parvarish qilish uchun qulay bo‘lish kerak. Agar urug‘larni konteynerlarga eksilsa, ularni 1,5 santimetrdan ko‘p bo‘lmagan tuproqqa ko‘mishingiz kerak. Har bir konteyner tepada pylonka bilan qoplangan bo‘lishi zarur. Urug‘larni 15 °C haroratda ekish kerak. Urug‘larni ekishdan oldin ularni, 10 litr suvga 20 g modda miqdorida fondazol bilan ishlov berish kerak. Shu qoidalarga amal qilgan holda urug‘lar ekiladi. Urug‘larni bir-biridan taxminan 5 sm masofada tuproq ustiga qo‘yiladi. Yaxshi parvarish qilingan o‘simlik bir oyda 4 santimetrgacha o‘sishi mumkin [8].

Daraxtlarga quyosh nurlarini tushishini mutnazam ravishda ta‘minlash kerak, ular tezroq o‘sadi. Daraxt kasalliklaridan ko‘k archa ildiz chirishiga moyil. Shuning uchun ko‘chatlar qayta ishlanadi. Umuman olganda, o‘simliklar yaxshi sharoitlarda omon qoladi. Faqat ularni transplantatsiya qilish va tashqi muhit sharoitlariga moslashishga yordam berish kerak. Ko‘k archa bir yoshga to‘lganda, u ochiq yerga ko‘chirilishi kerak.[4] Yillik daraxtlarni ko‘chirib o‘tkazish uchun ular o‘sadigan joylarda teshiklarni oldindan tayyorlash kerak. Bu yangi joyda ildiz otish jarayonini tezlashtiradi. Keyinchalik ularni bittalab kuzatib ildizlari tekshiriladi va faqat sog‘lom va kuchli daraxtlarni qoldirish zarur. Chunki kichik va nimjonlari unchalik foyda bermaydi. Har bir ildiz ehtiyyotkorlik bilan, loy bilan qoplangan bo‘lishi kerak va shundan keyingina yerga ekish mumkin. O‘simliklarning ildizlari qurib ketmasligiga va ish paytida zarar ko‘rmasligiga ishonch hosil qilmoq darkor. O‘simliklar 3 yildan keyin ham ko‘chiriladi va bu safar ular doimiy yashash joyini tanlanadi. Daraxtlar bir-biridan kamida bir metr masofada o‘sishi kerak. Aks holda

ular ozuqa moddalari va ildiz tizimining rivojlanishi uchun joylar yetarli bo‘lmaydi [5].

Ko‘k archaning (*Picea pungens*) ignabargli shoxlarining ko‘rinishi. Bir yoshga to‘lgan ko‘k archaning konteynerdan ko‘chirmasidan oldingi holati.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, moviy archa (*Picea pungens*) o‘zining chiroyi, salobatligi, baquvvatligi hamda sovuq iqlimga ham chidab o‘sganligi



uchun barcha davlatlar o‘zining yurtlarida ekib o‘stirmoqdalar. Undan tashqari moviy archa bilan shug‘ullangan kishilar anchagina daromadga ega bo‘lishadi. Sababi ekish, parvarishlash jarayonlari kamxarajat bo‘lib, urug‘dan unib chiqishi ham uncha ko‘p fursat talab etmaydi. Boshqa daraxtlardan ham ajralib, yaqqol ko‘zga tashlanadi [3]. Ko‘k archaning tabiatga ham foydali tomonlari ko‘p. Jumladan, kislorod ajratadi, o‘zidan ajratgan fitonsid moddasi orqali zararli bakteriyalar, viruslarni nobud qiladi. Insonlar bir qaraganda bahri-dillari ochiladi. Odamning kayfiyati ko‘tariladi.



Moviy archa (*Picea pungens*)ning turli xil ko‘rinishlari.[9]



Bu moviy archalar faslning har qanday kunida ham tabiat va insonlar uchun juda yaxshi dekaratsiya bo‘ladi. Chunki to‘rt faslda ham o‘zining chiroyini, tarovatini yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘.P.Pratov, M.M.Nabihev “O‘zbekiston yuksak o‘simpliklar zamonaviy tizimi”.-Toshkent, 2007, o‘quv qo‘llanma 64 bet.
- 2.Haydarov.H.Q, Toshpulatov.Y.SH “O‘simpliklar sistematikasi (yuksak o‘simpliklar). -Toshkent, O‘zbekiston, 2019, 249 bet.
- 3.Ergashev X.A “Yurtimizda o‘simpliklarni himoya qilishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari “, -Toshkent, 2023, 20-23-betlar.
- 4.O‘.P.Pratov, Yo‘ldashev A. “O‘zbekiston tabiatni o‘simpliklari” . -Toshkent, Sharq, 2011, 192 bet.
- 5.A.SH.Hamrayev, B.A.Sulaymonov “O‘simpliklarni himoya qilish”. -Toshkent, 2017, 636 bet.

- 6.A.M.Islomov, X.Ahmedov, K.X.Buxorov “Botanika va o’simliklar fiziologiyasi”. -Toshkent, O’zbekiston, 2018, 318 bet.
7. Qo‘ziboyev.SH.T., Tojiboyev.M.U. “O’simliklar ekologiyasi”. -Toshkent, O’zbekiston, 2021, 250 bet.
8. Arslonov.M.T, Rashidov.M.I “Yuksak o’simliklarni himoya qilish”. -Toshkent, Ilm Ziyo, 2013, 132 bet.
9. Misirova S. “Manzarali o’simliklar fitoptologiyasi”.-Toshkent, 2014, 103 bet.
- 10.Sheraliyev .A.J, Belolipov.I.V “Botanika va o’simliklar fiziologiyasi”. - Toshkent, Cho‘lpon nashriyoti, 2006, 264 bet.